XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-iyun VII-10-64-11-155-K/25 Dang‘ara tumani

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qaroriga muvofiq, Dang‘ara tumani hududidagi qabriston va ziyortgohlar nomini davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga, Dang‘ara tumani hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi tomonidan xatlov natijalariga asosan, nomsiz qabristonlar bo‘yicha taklif tayyorlanib, Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Respublika toponimika xizmatiga 2025-yil 21-aprel kuni 7/3483-sonli aloqa xati bilan “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” ekspert xulosasini olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasiga ko‘ra, shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, 2025-yil 19-may kungi 03/08-5346-sonli aloqa xati, 2025-yil 15-may kungi 05-19-7685-sonli xulosasiga asosan, **9 ta** geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha bergan takliflarning **barchasi**ga qonun hujjatlari talablariga “muvofiq” deb topilib, belgilangan tartibda ijobiy xulosalar olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qaroriga

muvofiq Dang‘ara tumani Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi Davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha Dang‘ara tuman hokimining maslahatchisi S.Irismatovaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Dang‘ara tuman komissiyasi tomonidan geografik obyektlarni qayta nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obyekt (qabriston va ziyoratgoh) nomlari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin, shuningdek, belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritilsin.

3. Dang‘ara tumani hokimligi Axborot xizmati (U.Usmonov), “Dang‘ara” gazetasi bosh muharriri (O‘.Akbarova) ushbu qarorni keng ommaga yetkazish tavsiya etilsin.

4. Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror bajarilishiga tuman hokimining o‘rinbosari T.Salimov, Kadastrlar palatasi filiali rahbari J.Meliyev shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

6. Ushbu qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi I.Ergashev hamda davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha Dang‘ara tumani hokimining maslahatchisi S.Irismatovalar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2025-yil 20-iyundagi
VII-10-64-11-155-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan va Davlat reyestriga kiritiladigan qabriston va ziyoratgohlar ro‘yxati

T/N	MFY nomi	Soni	Davlat reyestriga kiritiladigan obyekt nomi	Izoh
1	Oltiqush MFY		1.Uchuyli qabristoni	1. Qabriston Uchuyli qishlog‘ida joylashganligi sababli **joy nomiga** qo‘yilgan
2	Oltiqush MFY		2.Bo‘ston qabristoni	2. Qadimda bu joyda Bo‘ston qishlog‘i aholisi yashagan.Aholisi ko‘chmanchi bo‘lib,yaqinlari orasidan vafot etganlari shu Bo‘ston joyiga dafn etilgan Shundan buyon bu qabriston “Bo‘ston qabristoni” deb yuritilgan.
3	Boy bo‘ta MFY	1	1.Kengash qabristoni	Qabriston Kengash qishlog‘ida joylashganligi sababli **joy nomiga** qo‘yilgan
4	Qizilmusht MFY	1	1.Yangi hayot qabristoni	Qabriston Yangi hayot qishlog‘ida joylashganligi sababli **joy nomiga** qo‘yilgan

5	Qiyali MFY	1	1.Tutmozorbuva qabristoni	Bu qabriston o‘rnida avvallari tut daraxti qatorlari bo‘lgan.Asosan bu joylarga yosh bolalar,o‘lik tug‘ilgan chaqaloqlar ko‘milganligi sababli “Tutmozor” deb yuritilgan.Yana bir talqinga ko‘ra ota-ona ko‘z yoshlari farzandi o‘ligi ustida tutday to‘kilishi rivoyatlari ham mavjud.
6	Istiqlol MFY	1	1.Eshamatbuva qabristoni	Qadimda bu joyda Eshamat buva ismli avliyo odam yashagan Qabriston shu avliyo nomiga qo‘yilgan.
7	Taptiqsaroy MFY	1	1.Beshkapa qabristoni	Qabriston Beshkapa qishlog‘ida joylashganligi sababli **joy nomiga** qo‘yilgan
8	Yashik MFY	1	1.Nurafshon qabristoni	1. Qabriston |Nurafshon qishlog‘ida joylashganligi sababli **joy nomiga** qo‘yilgan

Jami: 8 ta qabriston

1	Doimobod MFY	1	Xoji Turobbuva ziyoratgohi	Qadimdan bu joyda 4 nafar aka-uka yashab o‘tgan, Bular Xo‘ja Turob buva, Xo‘ja Aziz buva, Sho‘rob to‘ra buva va singlisi Qizlarxon bo‘lgan. Aslida to‘ng‘ich farzand bo‘lmish Xo‘ja Turob buva chiqib ketib Doimobod MFY hududida g‘oyib bo‘lgan va shu yer ularning nomiga Xoji **Turobbuva** nomi berilgan, aziz joylar bo‘lganligi uchun asoslanib ziyoratgoh

				sifatida yuritiladi.

Jami: 1 ta ziyoratgoh